

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
Buxoro davlat texnika universiteti
rektori
dots. S.G'. Siddiqova

» _____ 2025 yil

08.00.10 - "Demografiya, Mehnat iqtisodiyoti"
Ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD)
kirish imtihoni

Dasturi

Buxoro – 2025

08.00.10 - "Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti" ixtisosligi bo'yicha tayanchi doktoranturaga (PhD) kirish imtihoni dasturi Buxoro davlat texnika universiteti kengashining 2025 yil 29.09 dagi 2 - sonli majlisi qarori bilan asos sifatida qabul qilindi.

Tuzuvchilar:

Avezova Sh.M. - "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası dotsenti (PhD)

Taqrizchilar:

Xayitov Sh.N. - "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası professori (DeS).
Navruz-Zoda B.N. - Buxoro davlat universiteti «Servis sohasi iqtisodiyoti» kafedrası professori, i.f.d

KIRISH

O'zbekistonda keng ko'lami va chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning dastlabki natijalari aholi hayoti va kundali turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda va buning natijasida el-yurtning ijtimoiy faolligi ertangi kunga ishlonchi tobora ortib bormoqda. Bunday ijtimoiy faollikka ijtimoiy-mehnat munosabatlari muttasil takomillashtirib borish mehnatni makroiqtisodiyot, tarmoq va korxonalar miqyosida oqilona tashkil qilish, ya'ni har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan mehnat omilidan samarali foydalanish orqali erishiladi.

Jahon taraqqiyotida rivojlanishning asosini tashkil etkvchi inson omili yetakchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Uni o'rganish natijasida esa demografiya va mehnat iqtisodiyoti ijtimoiy mehnat taqsimotining alohida yo'nalishi sifatida shakllandi va demografik jarayonlar hamda mehnat munosabatlari o'rganish alohida yo'nalishdagi fanlar bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda demografiya va mehnat iqtisodiyoti fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mamlakatda aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga ularning ish bilan ta'minlash muammolarini muvaffaqiyatli hal etish bilan erishish mumkin.

Shunday ekan, jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy muammolariga mehnat tushunchasi nuqtai nazaridan yondashib, bu muammolarni hal etishga demografiya va mehnat iqtisodiyoti sohasidagi izlanishlar orqali erishish mumkin.

Demografiya. Mehnat iqtisodiyotining maqsadi - mamlakatimizda makro va mikro darajada mehnat jarayonlarida vujudga kelayotgan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tushuntirish, ularni boshqarish va tartibga solish hamda demografik jarayonlarni tadqiq etish borasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Uning vazifasi - mehnatga oid tushuncha, ko'nikmalarni shakllantirish, korxona va tashkilotlarda mehnat munosabatlari tizimini tahlil etish, baholash va uni takomillashtirishning aniq chora va tadbirlarini ishlab chiqish, mehnat jarayonlarini tadqiq etish, demografik vaziyatga baho berish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ob'ektiv mazmunini mantiqiy jihatdan mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko'maklashishdan iborat.

ASOSIY QISM

Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi va uning jamiyat rivojlanishidagi roli.

Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishida Arastudan F.Smitgacha bo'lgan davr. Arastu asarlarida tovarlarning qieslana olishi muammosi haqida. Uilyam Petti va Per Buagilber tomonidan mehnat haqidagi fanga asos solinishi. Fransua Kene ta'limotida qishloq xo'jalik mehnatining yoritilishi. A.Smitning mehnat unumdorligi oshirishining asosiy shartlari haqidagi nazariyasi. Mehnatning umumli va unumsiz mehnatga bo'linishi. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishida D.Rikardo va K.Mark ta'limoti. Qiymatga oid mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari. Mehnatni ikki tomonlama xarakteri. Abstrakt mehnat va real mehnat. "Mehnat" to'g'risidagi nazariyaning rivojlanishida J.B.Sey, marjinalchilar va yangi klassiklarning roli. Bozor iqtisodiyoti va mehnat munosabatlari davlat tomonidan tartibga solib borish nazariyasi. Y.Shumpeter, J.M.Keyns va yangi klassik sintezlarning qarashlari. Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. Mehnat to'g'risidagi fanni yuzaga kelishida Islom iqtisodiyoti mafkurachilar va sharq iqtisodiy tafakkurining o'rimi. A.Temurning iqtisodiy g'oyalari. Sohibqironing iqtisodiy siyosati zahirida inson, uning manfaati va tinch hayot kechirish muammolarining ko'rilishi.

Mehnat iqtisodiyotining mohiyati, predmeti va mazmuni.

Mehnat tushunchasining mazmuni va mohiyati. Mehnat va faoliyat tushunchalari. Inson va jamiyatning rivojlanishida mehnatning ahamiyati. Mehnat jarayonining oddiy tarkibiy elementlari: mehnat predmeti, mehnat vositalari, faoliyat texnologiyalari yoki mehnat predmetiga ta'sir etish usuli, mehnatni normalash va mehnatning o'zi. "Mehnat" va "faoliyat" tushunchalarining o'zaro nisbati. Mehnat predmetlarini va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirish jarayoni. Mehnatning mazmuni va hususiyati. Mehnat iqtisodiyoti predmetining shakllanishi va rivojlanishi. "Mehnat iqtisodiyoti" fanining predmeti va usuli. Mehnat iqtisodiyotining darajaviy bo'limlari va muammolari. Mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi normativ xujjatlar. Mehnat turlari. Mehnat elementlari va mehnat jarayoni. Mehnatning namoyon bo'lish shakllari va funksiyalari. Insonning kamolga yetishida mehnatning ahamiyati. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mehnat iqtisodiyotining vazifalari.

Mehnat jarayonlarini tashkil etish.

Mehnatni tashkil etish: mohiyati va hususiyatlari. "Mehnatni tashkil qilish" tushunchasining paydo bo'lishi. F.Teyloring "mehnatni ilmiy asosda boshqarish" nazariyasi. Hodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan taminlashning mohiyati va mazmuni. Ijtimoiy mehnat munosabatlari tashkil qilish. Insonning

ijtimoiy ishlab chiqarishdagi holati. Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi. Jamiyatda mehnat taqsimotining turlari. Korxonalarda mehnat taqsimotining asosiy ko'rinishlari. Korxonada mehnat kooperatsiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari. Ish o'rni - ishlab chiqarish makonining bir qismi. Ish o'rmini ta'minlash. Ish o'rinlarining bir qator belgilari. Ish o'rinlarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko'rsatish. Xizmat ko'rsatish tizimi. Mehnat intizomi va uni rag'batlantirish. Mehnat sharoitlari va ularga baho berish. Chet ellarda mehnat faoliyatini tashkil etish va oqilonlashtirish nazariyasining rivojlantirilishi. Mustaqil Hamdo'stlik Mamlakatlarida va O'zbekistonda mehnatni tashkil etish nazariyalarning rivojlanishi.

Bozor xo'jaligi tizimida mehnat bozori.

Mehnat bozori: mohiyati, mazmuni va tuzilishi. Mehnat bozori - bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida. Mehnat bozorining asosiy elementlari. Mehnat bozori tizimini boshqarishning konseptual modeli. Mehnat bozorida davlat siyosatining yo'nalishlari. Tashqi va ichki mehnat bozorlari elementlarining o'zaro harakati. Mehnat bozori kon'yunkturasi. Mehnat bozorining ishlash mexanizmi. Ko'lam samarasi va o'rinni bosish samarasi. Talab va taklifning o'zaro aloqadorligi. Mehnat bozorining turlari: ularning segmentlarga bo'linishi va moslashuvchanligi. Mehnat bozoridagi taklif va ehtiyoj. Mehnat bozoridagi raqobat. Mehnat bozori modellari. Mehnat bozorining segmentlarga bo'linishi va moslashuvchanligi. Yollanma xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori sub'ektlari bilan ularning vakillari o'rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori sub'ektlari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar. Birlamchi va ikkilamchi mehnat bozorlarining asosiy hususiyatlari. Ayollarning mehnat bozoridagi ahvoli. Mehnat bozori va uning rivojlanishi bo'yicha nazariy qarashlar. Demografik tendensiyalar va ularning mehnat bozoriga ta'siri. Aholining keksayish muammosi. O'zbekistondagi demografik tendensiyalar. O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari. Aholining ko'payib ketish muammosi. Mehnat bozoridagi eng yangi tamoyillar: globalashuv va milliy manfaatlar. Mehnat bozori va uni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozoridagi davlat siyosatining yo'nalishlari. Mehnat bozoridagi passiv va faol siyosat. Davlat ish bilan bandlik xizmati. Mustaqil ish bilan bandlik hamda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. Ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari. Jamoat ishlari dasturlari. Mehnat bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi va uni modellashtirish.

Mehnat resurslari va mehnat potentsiali.

Mehnat resurslari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Mehnat resurslarining shakllanishi. Mehnat resurslari tarkibi: hozirgi paytda faol va faol

bo'lmagan aholi turlarining tasnifi. Yollanib ishlaydiganlar va yollanmasdan ishlaydiganlar. Mehnat resurslaridan foydalanish, jamiyatning mehnat potentsiali. "Aholi" haqida tushuncha. Aholini paydo bo'lishi. Mehnat resurslarini yosh jihatdan tuzilishi. Mehnat resurslarining sonini aniqlash. Mehnat resurslarini malakaviy tarkibi. "Mehnat salohiyati" haqidagi tushuncha va uning ijtimoiy iqtisodiy mazmuni. Tashkilot salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish. Mehnat potentsiali va mehnat resurslarining shakllanishida inson omili. Mehnat potentsialidan foydalanish. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari. Mehnat resurslari balansini tuzish va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash. Mehnat resurslarining miqdori. Iqtisodiy faol aholi soni. Ish bilan bandlar soni. Ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar sonini aniqlash. Mehnat resurslarining prognoz balansini tuzish. Mehnat resurslari hamda ishga joylashishga muhtoj shaxslar soni balansining ma'lumotlaridan foydalanish.

Aholini ish bilan bandligi nazariyalari va ularni amalda qo'llanilishi.

Aholini ish bilan bandligining klassik va neoklassik nazariyalari. Klassik maktabning namoyandalari A.Smit va D. Rikardo talimotlarida bozor xo'jaligida to'liq ish bilan bandlik nazariyasining asoslanishi. J.Keyns va neokynschaning ish bilan bandlik nazariyasi. Hozirgi zamon neoklassik nazariyalarda ish bilan bandlik masalalari. A.Fillips bo'yicha inflyatsiya va ishsizlikning bir-biriga bog'liqligi haqida. Fillips egri chizig'i. Monetaristlar va neokonservativizm yo'nalishlarining vujudga kelishi. Milton Fridman maktabi. Ishsizlikning tabiiy me'yori to'g'risidagi gipotezalar. Neoklassik sintez. Ish bilan bandlikning hozirgi zamon nazariyalaridan foydalanish. Ish bilan bandlikning yangi makroiqtisodiy nazariyasi. Shartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi. Institutsional yo'nalish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ish bilan bandligining shakllanishi va mohiyati.

Ish bilan bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, mazmuni va shakllari. Aholini ish bilan bandlik konsepsiyasi. Mehnatning ijtivoriyligi. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan bandligi to'g'risida"gi qonunda belgilangan bandlikni asosiy tamoyillari. Favqulodda huquq tamoyili. Ish bilan bandlik shakllarining tasnifi. Aholini ish bilan bandligining asosiy turlari. Ish bilan bandlik darajasi. Oqilona ish bilan bandlik. Samarali ish bilan bandlik.

Mahsuldor ish bilan bandlik. Eng maqbul ish bilan bandlik. Ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari. Aholini ish bilan bandlik darajasini yaxshilashning yo'nalishlari. Ish bilan bandlik maqomi. Ish bilan bandlik samaradorligi. Aholini ish bilan ta'minlash mezonlari. Aholini ish bilan bandligini boshqarishdagi xorijiy tajribalar.

Ishsizlik: sabablari, hususiyatlari va kamaytirish yo'llari.

Ishsizlik haqida umumiy tushunchalar. Ishsizlik shartlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlikning tarqalishi va ishsizlar xarakati. Ishsizlikning davomiyligi. Ishsizlik bo'yicha nafaqalar. Ishsizlikning sabablari. O'zbekistonda ishsizlikning o'sish sabablari. Ishsizlikning ijtimoiy - iqtisodiy chiqimlari. Ishsizlik tasnifi. Ishsizlik turlari. Tabiiy ishsizlik. Majburiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlik. Friksion ishsizlik. Davriy ishsizlik. Yashirin ishsizlik. Ishsizlikning turli mezonlari bo'yicha tasnifi. Ishsizlikni kamaytirish yo'llari. Ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosati. Ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosatining umumiy tuzilmasi. Ish bilan bandlikni o'sishini rag'batlantirish yo'nalishlari. Ishsizlikning jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatishi. Aholini ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat tadbirlari. Kasbga qayta o'qitish. Ta'lim berish tizimini kengaytirish. Bo'sh ish joylari haqida ahborotlarni tarqatish.

Personalni va inson resurslarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti.

Insonni tashkilotdagi roli to'g'risidagi boshqaruv nazariyasi. Iqtisodiy hayot sub'ekti to'g'risidagi tasavvurning rivojlanishi. Boshqaruv nazariyalarning tasnifi. "Tizim", "boshqaruv", "tartibga solish", "personal" tushunchalarining metodologik ahamiyati. A.Fayolning ma'muriy faoliyatga ta'luqli 14 tamoyili. Mehnat taqsimoti. Hokimiyat. Intuzom. Biron-bir ijtimoiy tuzilmadagi intuzomning ahvoli. Buyruq berish birligi. Rahbarlikning birligi. Hususiy manfaatlarining umumiy manfaatlariga bo'yusinishi. Personalni rag'batlantirish. Markazlashtirish. Ierarxiya. Tartib. Adolat. Personal tarkibining doimiy bo'linishi. Tashabbuskorlik. Personalni birlashtirish. "Fordizm" tizimining vujudga kelishi. Personalni ijtimoiy psixologik jihatdan boshqarishning nazariy muammolari. Inson potentsialini faollashtirishning omillari. Korxonalarda personalni shakllantirish va tashkil qilish amaliyoti. O'zbekiston korxonalarida personal xizmati. Personalni boshqarishning xorijiy tajribalari va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari.

Mehnat unumdorligini oshirish omillari va zahiralari.

Mehnat unumdorligi va uning ahamiyati. Mehnat unumdorligining nazariy asoslari. Mehnat iqtisodiyotidagi mehnat unumdorligi va mehnatning ishlab chiqaruvchi kuchi tushunchalari. Ijtimoiy mehnat unumdorligi va yakka tartibdagi mehnat unumdorligi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi va yakka tartibdagi mehnat unumdorligini aniqlash usuli. Mehnat intensivligi va og'irligi. Korxonalarda mehnat unumdorligining oshishi. Mehnat unumdorligi mazmunini aks ettiruvchi matematik modellar. Mehnat unumdorligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligini aniqlash dasturlari. Jonli va moddiylashgan mehnat unumdorligi ko'rsatkichi. Jami mehnatni aks ettiruvchi ko'rsatkich. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi. Ishlab chiqarishning natijasi va mahsuldorligi. Ishlab

chiqarilgan mahsulot miqdori. Mehnat unumdorligini o'lchash usullari. Mehnat unumdorligini hisoblashdagi mahsulot hajmi va mehnat sarflari ko'rsatkichlari. Natural usul. Shartliatural usul. Mehnat usuli. Qiymat usuli. Mehnat sig'imi ko'rsatkichi. Mahsulotning qiymat ko'rsatkichlarini ishlab chiqarishning turli omillari bilan kombinatsiyalashuvi. Mehnat unumdorligi nazariyasining rivojlantirilishi. Mehnat unumdorligi va mehnat intensivligi nisbati. Mehnat unumdorligi oshishi omillari. Moddiy-texnik omillar. Tashkiliy-iqtisodiy omillar. Ijtimoiy-ruhiy omillar. Mehnat unumdorligi oshishi zahiralari: umumdavlat zahiralari; mintaqaviy zahiralari; tarmoqlararo zahiralari; ishlab chiqarish ichki zahiralari; foydalanish muddati buyicha zahiralari; joriy zahiralari; istiqboldagi zahiralari. Mamlakatni yangilash va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishni prognozlash.

Mamlakatni yangilash va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholining turmush darajasi va daromadlari.

Aholi daromadlari va uning taqsimlanishi yuzasidan nazariy muammolari. Klassik siyosiy iqtisod vakillari qarashlari. Tirikchilik minimumi. "Tabiiy ish haqini" "Bozor ish haqidani" farqi. Pirovard unumdorlik qonuni. Daromadlar va ularning turlari. Xalq farovonligi va turmush sifati. Turmush darajasi va konsepsiyasi. Aholi ehtiyojlari va turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Turmush darajasi ko'rsatkichlari: iqtisodiy; ijtimoiy; demografik; qiymatli; natural. Turmush darajasi indikatorlari. Minimal iste'mol budjeti. Kambag'allik ko'rsatkichi. Mutlaq kambag'allik konsepsiyasi. Nisbiy kambag'allik konsepsiyasi. Kambag'allikning sub'ektiv konsepsiyasi. Aholini turmush darajasi ko'rsatkichlari: to'q turmush darajasi; normal daraja; kambag'allik; qashshoqlik. Aholi daromadini oshirish va turmush tarzini yaxshilashning ustivor yo'llari. Aholi daromadlari, ularning shakllanish manbalari va foydalanish yo'llari. Aholi daromadlarining nominal va real ko'rinishi. Lorens egri chizig'i. Djinni koeffitsienti. Laffer egri chizig'i. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish. Daromadlarni tartibga solishda soliqlarning roli.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda daromadlar siyosati va ish haqini tashkil etish xususiyatlari.

Daromadlar siyosati va ish haqi. Daromadlar siyosati va mehnatga haq to'lash vositalari amaliy tajribasi. Vengriyada mehnatga haq to'lash vositalarini soliqqa tortish xususiyatlari. Ish bilan bandlik, ish haqi va ishchi kuchi harajatlarning xalqaro statistikasi. Ish haqi tarkibi. Bevosita ish haqi va maosh. Ishdan tashqari vaqtda ishlagani uchun to'lovlar. Mukofot va sovg'alar. Natim bilan to'lovlar. "Yalpi" va "sof" ish haqlari. Ish kuchiga sarflanadigan xarajatlar tarkibi. Ish haqiga doir birdamlik siyosati. Birdamlik ish haqi siyosatini amalda

ro'yobga chiqarish. Ish haqini firma ichida tartibga solish. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida ish haqini tashkil qilishdagi o'zgarishlar. Ish haqi tuzilishini tartibga solish. Ish haqi stavkalarini belgilash usullari. Ish haqining yagona stavkalari. Ish haqining norasmiy stavkalari. Ish haqini avtomatik tarzda oshirishi. Ish haqi tuzilishini tartibga solish. Ish haqining shakl va tizimlari, hamda uning ko'rsatkichlari. Ish haqini hisoblash tamoyillari. Ish haqini tabaqalashtirish va uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Rahbarlar daromadining kafolatlari va uning nazorat qilinishi.

Ish haqini tashkil etish va uni isloh qilish.

Ish haqining mohiyati va uning shakllanishi. Ishchi kuchining foydaliligi va bahosi. Xodimlar uchun ish haqi. Tadbirkor uchun ish haqi. Ish haqini bozor qonunlari asosida tashkil etish mexanizmining asosiy unsurlari. Ish haqining rag'batlantiruvchilik vazifasi. Mehnatga haq to'lashning takror ishlab chiqarish vazifasi. Mehnatga haq to'lashning tartibga soluvchi vazifasi. Mehnat unumdorligi oshishi Ish haqining elementlari. Ish haqini tashkil etish tamoyillari - daromadlar va mehnatga haq to'lash siyosatini ishlab chiqishning metodologik asosi. Ish haqini tashkil etish tamoyillari va vazifalarining aloqadorligi. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlar daromadlarining asosiy turlari. Xodimlar manfaatdorligi tizimi. Ish haqini tashkiliy asoslari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarning ish haqi funksiyalari. Tarif tizimining mohiyati va elementi. Tarif malaka spravochnigi. Tarif jadvali. Tarif bo'yicha tabaqalashning iqtisodiy omillari. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Korxonada mehnatga haq to'lashning tashkiliy asoslari. Korxonada ish haqi fondini rejalashtirishning mohiyati, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari. Ish haqini rejalashtirishning takomillashtirish yo'llari. Mamlakatni yangilash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ish haqini isloh qilish yo'nalishlari. Mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etish

Mehnatga haq to'lash tizimlari tushunchasi va ularning tasnifi. Ish haqini tashkil etish amaliyotidagi mehnatni normalashning tarif va tashkiliy texnik turlari. Asosiy va qo'shimcha ish haqi. Ish haqining ishbay hamda vaqtbay tizimlarini qo'llash. Mehnatga haq to'lashning oddiy ishbay va oddiy vaqtbay tizimi. Mehnatga haq to'lashning akkord tizimi. Mehnatga haq to'lashning bilvosita usuli. Mehnatga haq to'lashning moddiy tizimlari. Haq to'lashning rag'batlantiruvchi tizimlari. Asosiy ish natijalari uchun rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash. Korxonalarda ish haqiga qo'shimchalar, ustamalar va bir marta beriladigan mukofotlarni qo'llash. Ish natijalari. Ish samaradorligi. Individual mukofotlash. Rag'batlantiruvchi qo'shimchalar va ustamalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi.

“Ijtimoiy muhofaza qilish” tushunchasi va uning asosiy yo‘nalishlari. Ijtimoiy muhofaza tizimi. “Ijtimoiy xatar” kategoriyasi. Ijtimoiy muhofaza sub’ektlari. Ijtimoiy muhofaza darajalari. Ijtimoiy muhofaza predmetlari va ularning tarkibi. Ijtimoiy muhofaza prinsiplari. Ijtimoiy muhofazani baholash mezonlari. Samarali ijtimoiy muhofazalash. Ijtimoiy institutlar va xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi. Ijtimoiy muhofaza shakllari va mexanizmlarini amalga oshirishda davlatning roli. Ijtimoiy kafolatlar. Ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasini shakllantirish tarixi. Yollanna xodimlar huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish. Ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari. Ijtimoiy kafolatlarning asosiy vazifasi. Mehnatga qobiliyatli aholining ijtimoiy kafolatlari to‘g‘risidagi qonunlar. O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli tizimi.

Bozor munosabatlari tizimida mehnatni boshqarish.

Mehnatni boshqarish xususiyatlari. Ijtimoiy mehnat sohasi. Mehnatni boshqarish funksiyalari. Mehnatni boshqarish tizimi. Mehnatni boshqarish turlari va metodlari. Mehnatni boshqarishning davlat shakllari. Mehnatni boshqarishning shartnomali shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining mehnatni boshqarishdagi roli. Mehnat vazirligining asosiy vazifalari.

Mehnat vazirligining boshqaruv jarayoni. Vazirlik faoliyatini tashkil etish. Mehnat vazirligiga bo‘ysunuvchi tashkilotlar. Makroiqtisodiy va mikroiktisodiy darajalarda mehnatni boshqarish. Mehnatni boshqarishning xalqaro darajasi. XMTning asosiy vazifalari. Korxona mehnatni boshqarish. Davlat darajasida mehnatni boshqarish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatni boshqarish tizimini takomillashtirish.

“Demografiya” fanining predmeti va mazmuni.

“Demografiya” fanining ob’ekti va predmeti. Fanning asosiy nazariy va amaliy vazifalari. Aholi haqidagi bilimlar va uning rivojlanish qonuniyatlari. Aholining tabiiy va ijtimoiy harkati. Demografik tarkiblar va jarayonlar. Migratsiya va aholining takror hosil bo‘lishi o‘rtasidagi o‘xshashliklar va tafovutlar. Demografiyaning tadqiqot usullari: umummilliy va xususiy usullar. Demografiya fanidagi iftisoslashish. Fanda tabaqalanish uchun qabul qilingan asosiy mezonlar. Demografiya fanlari tizimi: demografiya nazariyasi, demografik statistika, demografik tahlil, amaliy demografiya, geodemografiya, grontodemografiya, iqtisodiy demografiya, matematik demografiya,

paleodemografiya, sotsiologik demografiya, tarixiy demografiya, tibbiy demografiya, etnik demografiya, harbiy demografiya va h.k. Demografiya fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Demografik jarayonlar va aholi to‘g‘risidagi axborot manbalari.

Aholi va uni o‘rganishga bag‘ishlangan ilk yozma manbalar. Demografiya ma’lumotlar statistikasi. Birlamchi ikkilamchi demografik ma’lumotlar. Aholi ro‘yxati va uni o‘ni o‘tkazish shartlari. Aholi ni ro‘yxatga olish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari. Aholini ro‘yxatga olish uslubiyati. Aholini royxatga olishning asosiy vazifalari va tamoyillari. Aholini ro‘yxatga olish tartibi va usullari. Aholini ro‘yxatga olish dasturlari. Demografik jarayonlarning joriy hisobi va uni tashkil etishning qonuniy va me’yoriy-huquqiy asoslari. Demografik jarayonlarni joriy hisobini tashkil etish uchun ma’lumot manbalari. Aholi to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar: tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi; nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi; o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi; ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi; ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi; Aholining tabiiy va mexanik harakati to‘g‘risida ma’lumotlar.

Aholi soni va tarkibi.

Aholi soni to‘g‘risida tushuncha. Aholini hisobga olish statistikasida farqlanadigan aholi toifalari. Aholi sonining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar. Doimiy aholining yillik o‘rtacha soni. Aholining absolyut o‘sishi (kamayishi). O‘sish sur’ati. Demografik balans va uning ahamiyati. Aholi soning o‘sish omillari va uning oqibatlari. Dunyo aholisining soni va uning tadrijiy o‘zgarishi. O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni va uning o‘sish omillari. Aholi tarkibi to‘g‘risida tushuncha. Aholi tarkibi va uning tavsifiy belgilari. Aholining jinsiy tarkibi va unga ta’sir etuvchi omillar. Aholini yosh tarkibi va uning shakllanish qonuniyatlari. Yosh tasnifi. Aholi yosh tarkibi. Aholini keksayish jarayonlari.

Urbanizatsiya – murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida.

Jamiyatni rivojlantirishda shaharlar rolining o‘rni. Urbanizatsiya jarayonining shakllanish omillari. Urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati. Urbanizatsiya darajasining o‘rtasidagi jiddiy o‘zgarishlar. Demografiyada aholining shahar va qishloqlarda joylashishining asosiy ko‘rsatkichlari. Urbanizatsiya jarayonining demografik jihatlari.

Demografik jarayon.

Tug‘ilishning demografik mazmuni. Tabiiy tug‘ilish darajasini aniqlashga doir yondashuvlar. Tabiiy tug‘ilish modeli. Tug‘ilishning standart koeffitsientlari.

Mehnat migratsiyasini tartibga solish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari.

Iqtisodiy rivojlanishning demografik omillari.

Kapital qo'yilmalar, ish bilan bandlik va unumdorlikning demografik jihatlar. Kapital qo'yilmalarda demografik omillarning roli. Demografiya va biznes. Demografik axborotlarda biznes. Tadbirkorlarning demografik ma'lumotlarga qiziqishini o'sishining sabablari. Demografik jarayonlar – marketing muhitini omili sifatida. Iste'mol bozorlari va aholi. Bozorni segmentlashda demografik jihatlar. Aholining yosh tarkibi – ishlab chiqarish va iste'mol hajmiga ta'sir etuvchi omil sifatida.

Demografik konsepsiyalar va demografik qonuniyatlar.

Ilk demografik konsepsiyalar. Aholi rivojlanishining son va sifat jihatlar. Demografik sikllar konsepsiyasi. Demografik o'tish nazariyasi.

Migratsion jarayonlarning uch bosqichli konsepsiyasi. Maltus va uning nufuz nazariyasi. Aholi o'sishini cheklovchi omillar. Demografik jarayonlardagi o'zaro bog'liqlik. Aholi yosh tarkibining tug'ilish va o'limning umumiy ko'rsatkichlariga ta'siri. Tug'ilish va o'limning o'zaro bog'liqligi. Ammortizatsiya qoidasi. Tug'ilishning nikohga ta'siri.

Demografik prognozlashirish.

Demografik prognoz haqida tushuncha. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda demografik prognozlarning ahamiyati. Demografik prognozlashirish yo'nalishlari: global va mintaqaviy. Demografik prognoz shakllari: tahliliy, me'yoriy, ogohlantiruvchi va funksiyaviy. Prognozlarning ishlonchilligi va aniqdigi. Demografik prognoz turlari: qisqa, o'rta va uzoq muddatli prognozlar. Demografik prognozlarni amalga oshirish usullari. Aholi soni va tarkibini prognozlashirish.

Demografik siyosatni o'tkazish usullari va yo'nalishlari.

Siyosat – ijtimoiy jarayonlarni boshqarish tizimida asosiy unsur sifatida. Demografik siyosatning maqsad va vazifalari. Demografik siyosatning ob'ekti va asosiy yo'nalishlari. Demografik siyosatning tarkibi. Demografik siyosatning asosiy komponentlari. Demografik siyosat tarkibi. Demografik siyosatni o'tkazish shartsharoitlari. Demografik siyosani o'tkazish usullari: iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik. Demografik siyosat jihatlar va darajalari. Tug'ilish va oila sohasidagi demografik siyosat. Tug'ilishni tartibga solishga qaratilgan demografik siyosatni amalga oshirish usul va vositalari.

Reproduktiv ko'rsatmalarning asosiy tashqi indikatorlari. Oilaning reproduktiv davri. Aholining reproduktiv mayliga ta'sir etuvchi omillar. Reprodukativ mayl turlari. O'zbekistonda tug'ilishning tadrijiy rivojlanish bosqichlari. Tug'ilishga doir konsepsiya.

Aholining o'limi va umr ko'rish davomiyligi.

O'lim jarayoni va uning demografik mohiyati. O'lim sabablari bilan bog'liq omillar. O'lim va uning turmush sharoiti bilan bog'liqligi. Epidimialogik o'sish konsepsiyasi. Epidimialogik o'tish bosqichlari. Aholi sonining geperbolik o'sish qonuni. O'limning tarixiy bosqichlari. Kasalliklar va jarohatlar, o'lim sabablarining xalqaro tasnifi. Aholi umr ko'rish davomiyligi. Umr ko'rish davomiyligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Umr ko'rish davomiyligi o'sishining asosiy shartlari. Dunyo mamlakatlariga inson tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi.

Aholi sifat ko'rsatkichlari va ularni baholash.

Salomatlik – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Jismoniy, psixologik va ijtimoiy salomatlik. Aholi salomatligiga baholashga doir axborot manbalari. Aholi orasida tarqalgan kasalliklarni o'rganishning ahamiyati. Halqaro amaliyotda ijtimoiy salomatlikni baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlar. Insonni o'zini saqlash mayli va uning tarkibi. Aholi salomatligi holatining yomonlashuvidan iqtisodiy yo'qotishni baholash.

Aholining takror barpo bo'lish xususiyatlari.

Aholini takror barpo bo'lish kategoriyasining mazmun va mohiyati. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy turlari. Aholi qisqargan takror barpo bo'lishining omillari va oqibatlar. Aholining oddiy takror barpo bo'lishi va unga xos xususiyatlar. Aholining kengaygan takror barpo bo'lishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. Aholining takror barpo bo'lishining asosiy ko'rsatkichlari. Demografik o'tish va uning bosqichlari. Demografik balans va uni tuzish.

Aholi migratsiyasi.

Migratsiya tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik mohiyati. Migratsiyaning funksiyalari. Migratsiya turlari. Aholi migratsiyasi ko'rinishlari. Migratsiya shakllari va sabablari. Migratsiyaning demografik jarayonlarga ta'siri. Demografiya nuqtai nazaridan xalqaro migratsiyaning migratsiya muhojirlarini jalb etuvchi davlatlarga ta'siri. Migratsiyaning hisobga olish usullari va ko'rsatkichlari. Aholining migratsion harakatchanligini son va sifat jihatdan baholash. Mehnat migratsiyasi va uning sabablari. Mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy jihatlar.

Kirish imtihoni savollari.

1. Tarixiy manbalarda inson mexdati va faoliyatiga bulgan karashlarning rivojlanishi
2. Shark mutafakkirlari ta'limotlarida mexnat faoliyati va ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarning urni
3. Temur va temuriylar davrida mexnat va ishbilarmonlikka karashlarning rivojlanishi
4. Uzbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish an'analarining shakllanishi.
5. «Mexnat iktisodiyoti» fanini urganish boskichlari va modellari
6. Mexnatning funksiyalari va turlari
7. «Mexnat iktisodiyoti» fanining innovatsion rivojlanish sharoitlaridagi vazifalari
8. Demografik tarkiblar va jarayonlar. Demografiyaning alohida fan sifatida paydo bo'lish va rivojlanish tarixi.
9. O'zbekistonda demografik bilimlarning rivojlanishi.
10. Mexnat bozorining shakllanish shart-sharoitlari
11. Mexnat bozorining turlari
12. Mexnat bozorini tartibga solish usullari.
13. Mexnat bozorining modellari
14. Mexnat bozorida kasaba uyushmalarining roli
15. Xorijiy mamlakatlar mexnat bozorlari va ularning amal etish xususiyatlari
16. Mexnat resurslariga bulgan talabning shakllanishi
17. Mexnat resurslarining taklifi: oddiy va kengaytirilgan modellar
18. Mexnat resurslari taklifini mikdor jixatdan xisoblash tajribasi
19. Mexnat resurslarini shakllantirish
20. «Mexnat resurslari» va «inson resurslari»ning uzaro bog'liqligi
21. Mexnat resurslari tushunchasi
22. Mexnat faoliyatida inson omili
23. Axoli va mexnat resurslarining tarkibi
24. Axolini ish bilan bandligi buyicha tasniflash
25. «Mexnat potentsiali» tushunchasi va uning nazariyasi
26. Mexnat potentsialini belgilovchi kursatkichlar tizimi
27. Mexnat potentsialining tasniflanishi
28. Mexnat potentsialini shakllanishida inson omilining roli
29. Mexnat potentsialining xozirgi davr konsepsiyasi
30. Uzbekistonda mexnat potentsialiga demografik omillarning ta'siri
31. Inson kapitaliga kilinadigan investitsiyalar xakida umumiy tushunchalar
32. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi
33. «Inson kapitali» va «inson tarakkiyoti»ga nazariy karashlar
34. Inson kapitaliga investitsiyalar

35. Axolini ish bilan bandligi buyicha klassik va neoklassik nazariyalar
36. Neoklassik nazariyalarda axolining ish bilan bandligi masalalari
37. Axolini ish bilan bandligi buyicha xozirgi zamon nazariyalari
38. Axolini ish bilan ta'minlashning tasnifi
39. Ish bilan bandlik - ijtimoiy-iktisodiy siyosat elementi
40. Axolining ish bilan bandligi, uning asosiy turlari va shakllari
41. Ish bilan bandlik soxasida ijtimoiy-demografik guruhlar
42. Mexnat bozorida rakobatbardosh bulmagan nogironligi bulgan fukarolar ish bilan bandligining kafolatlari
43. Xotin-kizlar tadbirkorligini rivojlantirish vazifalari
44. Mexnat bozorida rakobatbardosh bulmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash
45. Mexnat resurslarining mobiligi va uning turlari
46. Mexnat resurslarining xududlararo mobiligi
47. Mexnat resurslarining tarmoklararo mobiligi
48. Mexnat migratsiyasi: kelib chiqishi va okibatlari
49. Xalkaro mexnat migratsiyasi
50. Mexnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi
- Ik'tisodiyotning innovatsion rivojlanishi va mexnat munosabatlarining yangi shakllari
51. Ish bilan bekdor bandlik va uning turlari
52. Ijaraga olingan (zayomnyy) mexnat (loan labor)
53. Masofada turib ishlash (teleish - «TELEWORK», «TELECOMMUTING»)
54. Autstaffing («out staff») - «shtat taunkarisida»)
55. Frilans («freelanc») - «erkin yollash»)
56. Kovorking («Co-working») - «xamkorlikdagi mexnat»)
57. Kraudsorsing («crowdsourcing, crowd») - «keng doyra» va «sourcing» - resurslardan foydalanish)
58. Outsorsing («outsourcing») - «tashkd manba va/yoki resursdan foydalanish»).
59. Kasanachilik mexdati va uning yunalishlari
60. Ish bilan bekaror bandlikning mexdat bozoriga ta'siri
61. Davlatning mexnat bozoridagi roli
62. Davlatning ish bilan bandlik siyosati
63. Mexdat bozorining infratuzilmalari
64. Axolini ishga joylashtirish tizimida davlat va xususiy tuzilmalar sherikligining roli
65. Ishsizlik tushunchasi va uning kelib chikishi sabablari
66. Ishsizlikning turlari

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. -T.: Mehnat, 2009. - 763 b.
2. Abdurahmonov Q.X. va b. Inson taraqqiyoti. 2012. 460 b.
3. Abdurahmonov Q.X. va b. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. 2013. 418 b.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot / Darslik. Q.Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. - T.: 2019. - 592 b.
5. Abdurahmonov K.X., Babayina L.S., Odegov Yu.G. Upravlenie chelovechiskimi resursami organizatsii. Uchebnik. - T.: Izd. «Fan» Akademii nauk Respubliki Uzbekistan, 2020. - 256 s.
6. Abdurahmonov Q.X. va b. / Zokirova N.Q., Shoyusupova N.T., Gabzalilova V.T., Aburamanov X.X., Abduraxmonova G.Q., Shakarov Z.G. / Demografiya. Darslik. - T.: "Iqtisodiyot" 2014. - 364 b.
7. Abduraxmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qo'llanma. - T.: Noshir, 2011, - 296 b.
8. Demografiya: Uchebnoe posobie / Kollektiv pod. red. V.G.Glushnikovoy, Yu.A.Smagina. - M.: KNORUS, 2013. - 304 s.
9. Kokina A.Ya. Ekonomika truda.-M.: Magistr, 2010.
10. Mumladze R.G., Gujina G.N. Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik. - Moskva. KNORUS, 2007.
11. Ekonomika truda / Pod red.Gorelova N.A. - Uchebnik. SPb.: Piter, 2007g
12. Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik./ Pod.red. A. Ya. Kibanov.- M.: INFRA-M, 2010-548s.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ekonomika narodonaseleniya: uchebnik./ Pod. Red. Prof. V.A. Ionseva. - M.: INFRA-M, 2007.-668s.
2. Kibanov A.Ya. i dr. Upravlenie personalom. Uchebnik. - M.: RIOR, 2010. - 288 s.
3. Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik. / Pod. red. A.Ya. Kibanova. - M.: INFRA-M, 2010. - 548 s.
4. Jdankin N.A. Motivatsiya personala. Izmerenie i analiz. Ucheb.- prakt. posob. - M.: Finpress, 2010. - 272 s.
5. Kibanova A.Ya. i dr. Motivatsiya i stimulirovanie trudovoy deyatelnosti. Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2009. - 524 s.
6. Bakieva I.A. «Mehnat iqtisodiyoti» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi «Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. - T.: TDIU, 2008.
7. Osnovy demografii: Ucheb. Posobie / P.I.Kosov, A.B.Brendeeva. - 2 - s izd., dop. i pererab. - M.: INFRA-M, 2012. - 288 s.

67. Ishsizlik kursatkichlari va uni aniklash usullari
68. Ishsizlarni ijtimoiy ximoyalash va ularni mehnat bozorida rakobatbardoshligini oshirish
69. Ishsizlarni jamoat ishlariga jalb etish
70. Uzbekistonda axoli turmush darajasi va uning barkaror rivojlanishi
71. Ish xakining utisodiy moxiyati
72. Mexnatga xak tulash darajasini urnatishning bozor mexanizmlar
73. Mexnatga xak tulashni tartibga solish
74. Mexdatga xak tulash tizimlari
75. Eng kam ish xaki
76. «Iste'mol savatchasi» tushunchasi
77. Mexnatni ragbatlantirish
78. Mexnat unumdorligi - samaradorlikning asosiy kursatkichlari
79. Mexnat unumdorligini oshirish omillari va vositalari
80. Moddiy-texnik omillar
81. Ijtimoiy-iktisodiy omillar
82. Tashkiliy-institutsional omillar
- 83..Maxsulotdagi mexnat sigimi turlari
84. Mexnat unumdorligi va ish xakining nisbati
85. Eng yuksak mexnat unumdorligi konsepsiyalari
86. Mexdat munosabatlarning moxiyati va ularning turlari
87. Tadbirkorlik faoliyatida mexnat munosabatlari
88. Innovatsion tadbirkorlik - mexnat munosabatlarning zamonaviy shakli
89. Pensiya ta'minoti: uning modellari va xususiyatlari
90. Majburiy mexnatga barxam berish
- 91.Ijtimoiy mexnat munosabatlari, ularning turlari va tartibga solinish vositalari
92. Davlat, ish beruvchilar va xodimlar urtasida ijtimoiy sheriklik
93. Ijtimoiy mexnat munosabatlari davlat-xususiy sherikligining roli
94. Ijtimoiy mexnat nizolari va ularni xal kilish usullari
95. Mexnat faoliyati soxasida xalkaro standartlar
96. Uzbekiston Respublikasining Mexnat kodeksida mexnat munosabatlarning tartibga solinishi
- 97.Munosib mexnat konsepsiyasi asosida xodimlarni ijtimoiy ximoya kilish
98. Xodimlarni ijtimoiy-utisodiy muxofaza kilish mexanizmi
99. Munosib mexnat konsepsiyasini iktisodiyotga joriy etish amaliyoti
- 100.Demografiyaning tadqiqot usullari.

8. Sagradov A.A. Ekonomicheskaya demografiya. Uchebnoe posobie. – M.: Magistr, 2016. – 297 s.

Internet saytlari:

1. <http://www.gov.uz>
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.mineconomy.uz>
4. <http://www.mf.uz>
5. <http://www.stat.uz>
6. <http://www.soliq.uz>
7. <http://www.cbu.uz>
8. <http://www.wordbank.org>
9. <http://www.ebrd.org>
10. <http://www.imf.org>